



## **GIPERPROLAKTINEMIYASI BOR AYOLLARDA TISH KASALLIKLARI**

O'. Sh. Mo'minova,

G. Sh Baltabayeva,

N. M. Mirvohidova

EMU Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

### **Annotatsiya:**

ayollarda uchraydigan turli neyroendokrin kasalliklar orasida giperprolaktinemiya sindromi katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Giperprolaktinemiya bilan og'rigan, tish kasalliklari bor 54 nafar ayol va 20 ta sog'lom ayollar tekshirildi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, giperprolaktinemiya da Ca va Vit D3 kuchli yetishmovchiligi kuzatilib, jag' suyaklari osteoparoz va parodontit yuqori korsatkichiga sabab bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** giperprolaktinemiya, jag' suyaklari osteoparoz, parodontit

### **Kirish**

Yuqori prolaktin darajasi ko'pincha kalsiy va boshqa minerallar almashinuvidagi o'zgarishlarga sabab bo'lib, gipokalsimiyaga va bu o'z navbatida tishlar kariesi, parodontit va jag' osteoparoziga olib keladi.

**Tadqiqot maqsadi:** giperprolaktinemiya sindromi bo'lgan ayollarda tish kasalliklari xususiyatlarini o'rganish.

**O'quv materiallari:** Tadqiqotning asosiy maqsadiga muvofiq, tish kasalliklarini o'rganish uchun 54 ta giperprolaktinemiya sindromi bo'lgan reproduktiv yoshdagi ayollar olindi. Giperprolaktinemiya bilan og'rigan, tish kasalliklari bor barcha 54 bemor, ushbu endokrin patologiyani kelib chiqishiga qarab, 2 asosiy guruhga bo'lingan: 1-guruh (n=32) - gipofiz prolaktinomasi mavjudligi sababli giperprolaktinemiya bilan og'rigan bemorlar; 2-guruh (n=22) - idiopatik giperprolaktinemiya bo'lgan ayollar. Nazorat guruhi qon zardobida normal PRL darajasiga ega bo'lgan, tishlarida muammo yo'q 20 ta sog'lom ayollardan iborat.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> January, 2025

Barcha ayollarda anamnestik ma'lumot yig'ildi, laborator tekshiruvlar (umumiy qon taxlili, prolaktin, Ca, Vit D3 ko'rsatkichlari, gipofiz bezi kompyuter tomografiyasi), stomatologik tekshiruv, tishlar rentgen tekshiruvidan o'tkazilgan.

### Tadqiqot natijalari:

Giperprolaktinemiya sindromi bilan og'rigan bemorlarning shikoyatlari orasida bosh og'rig'i (40,3%), hayz davrining buzilishi (85,5%), birlamchi yoki ikkilamchi bepushtlik (61,3%), galaktoreya (80,6%) bilan birga tish bilan bog'liq muammolar (80%) bo'lgan.

1-guruhdagi ayollarda: 12 tasida-60%, 8 tasida-33%, 6 tasida-30.3% va qolgan 6 tasida-25% tishlarida karies aniqlandi. 2-guruhda esa 10 ta ayolda-50%, 6 tada-35% va qolgan 6 tada -25% karies bor. Jag' suyaklari osteoparoz 1-guruhda (33%), 2-guruhga (18.3%) qaraganda ko'proq kuzatildi. Parodontit esa 1-guruhdagi ayollardan 14tasining -45% milkida, 10tasida-30% va 8 tasida-25% aniqlandi. 2-guruhdagi ayollarda esa nisbatan kamroq parodontit aniqlandi. 8 ta ayolda-25.5%, 10 tasida-18% va 4 tasida -10%.

Ikkala guruhdagi giperprolaktinemiya sindromi bo'lgan bemorlardagi tish kasalliklari stomatologik davolandi. Shu bilan birga giperprolaktinemiya ginekolog va endokrinologlar tomonidan etiopatogenetik davolandi. Har uchchala guruhdagi ayollar qonidan Ca, Vit D3 tekshirilganda, 1-guruhda -96%, 2-guruhda -74% va 3-guruhda esa 13.3% yetishmovchilik aniqlandi. 1- va 2- guruhdagi ayollarga etiopatogenetik davoga qo'shimcha davolovchi dozada, 3-guruhdagilarga profilaktik dozada Ca, Vit D3 preparatlari qo'shildi. Qayta ko'rikda ikkala guruhdagi ayollar jag' osteoparoz 5% ga yaxshilangani, parodontit tuzalish bosqichi tezlashgani kuzatildi.

### Xulosa:

Giperprolaktinemiya bilan og'rigan ayollarda gormonal o'zgarishlar va kalsiy almashinuvidagi buzilishlar tufayli tish kasalliklarini rivojlanish xavfi ortadi. Asosiy muammolar orasida peridontit va jag' osteoparoz kiradi.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

---

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авакян В.М. и др. Состояние стоматологического здоровья беременных женщин //Международный студенческий научный вестник, 2015. № 2-1. С. 10.
2. Бахмудов Б.Р., Бахмудов М.Б., Алиева З.Б. Изучение информированности беременных женщин о стоматологическом здоровье и методах обеспечения гигиены полости рта // Клиническая стоматология, 2009. № 1. С. 78-81
3. Себко Т.В., Хейдар Л.А., Конеева С.С. Гиперпролактинемия // Российский медицинский журнал. 2016. Т.22. №5. С.250-257.